

HUDUDLARNING NOMUTANOSIB RIVOJLANISHINI BAHOLASHDA RAQAMLI MONITORING TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Karimova Shirin Zoxid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrası PhD dotsenti

Annotatsiya

Ushbu ishda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi nomutanosibliklarni aniqlashda raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda hududiy ko'rsatkichlarni yig'ish, tahlil qilish va baholash jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Raqamli monitoring tizimlari yordamida hududlar rivojlanishidagi farqlarni tezkor aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada, hududiy rivojlanishni samarali boshqarishda raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hududiy nomutanosiblik, integratsiya, GIS, big data, indikator, demografik ko'rsatkichlar, Gini koeffitsienti.

Аннотация

В данной работе рассматриваются вопросы использования цифровых систем мониторинга для выявления диспропорций в уровне социально-экономического развития между регионами. В исследовании освещается значение современных цифровых технологий в процессе сбора, анализа и оценки региональных показателей. Также анализируются возможности цифровых систем мониторинга для оперативного выявления различий в развитии регионов и принятия решений, направленных на их сокращение. В результате обосновывается, что использование цифровых систем мониторинга является важным фактором эффективного управления региональным развитием.

Ключевые слова: региональная диспропорция, интеграция, GIS, Big Data, индикатор, демографические показатели, коэффициент Джини.

Abstract

This paper examines the use of digital monitoring systems to identify disparities in the level of socio-economic development among regions. The study highlights the importance of modern digital technologies in the process of collecting, analyzing, and evaluating regional indicators. It also analyzes the possibilities of digital monitoring systems for the rapid identification of differences in regional development and for making decisions aimed at reducing these disparities. As a result, the study substantiates that the use of digital monitoring systems is an important factor in the effective management of regional development.

Keywords: regional disparity, integration, GIS, big data, indicator, demographic indicators, Gini coefficient.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish jarayonida hududlarning rivojlanishidagi nomutanosiblik dolzarb muammolardan biridir. Hududiy rivojlanishidagi

nomutanosiblik hududlar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni ifodalaydi va resurslar taqsimoti, infratuzilma rivoji hamda aholining turmush darajasidagi tafovutlarga olib keladi. An'anaviy usullar yordamida bu farqlarni aniqlash va bartaraf etish uzoq muddat talab etadi. Raqamli monitoring tizimlari ushbu jarayonni tubdan o'zgartirdi. Bu tizimlar iqtisodiy ko'rsatkichlar, aholining migratsiyasi va resurslar taqsimotini real vaqt rejimida kuzatish, katta hajmdagi ma'lumotlarni, sun'iy intellekt va geografik axborot tizimlarini integratsiya qilib tahlil qilish imkonini beradi. Natijada hukumat va mutaxassislar hududlar orasidagi nomutanosiblikning chuqurligini tez aniqlab, samarali choralar ko'rishi mumkin. Ushbu maqola maqsadi hududiy nomutanosiblikni raqamli monitoring tizimlari yordamida aniqlash va tahlil qilishdan iborat bo'lib, O'zbekiston misolida amaliy takliflarni keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy nomutanosiblikni aniqlash va kamaytirish masalasi so'nggi yillarda raqamli transformatsiya, innovatsiyalar va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq holda keng tadqiq qilinmoqda. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda raqamli texnologiyalar, institutsional muhit va ijtimoiy siyosatning o'zaro ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan.

Bulturbayevich M. B. O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish va innovatsiyalarning hududiy iqtisodiy yaqinlashuvga ta'sirini tahlil qilgan. Muallif raqamli texnologiyalar va innovatsion infratuzilmaning hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishi, iqtisodiy faollikdagi tafovutlarni yumshatishi va mintaqalararo konvergensiyani jadallashtirishi mumkinligini asoslab bergan [1]. Ushbu yondashuv hududiy rivojlanishni baholashda raqamli transformatsiyaning amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Hududiy daromadlar tengsizligini raqamlashtirish omili bilan bog'liq holda Hu S., Jie Y. va Zhu S. tadqiq qilgan. Ular 134 ta iqtisodiyot bo'yicha panel ma'lumotlar asosida raqamlashtirishning hududiy daromad tengsizligiga ta'sirini o'rgangan va raqamli moliya, raqamli infratuzilma hamda institutsional uyg'unlik hududiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilishini ko'rsatgan [2]. Mazkur tadqiqot hududiy nomutanosiblikni baholashda konfiguratsion yondashuvdan foydalanish imkonini kengaytiradi.

Ilxomjonov J. esa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda inson kapitali rivojlanishining o'rini Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil qilgan. Muallif ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozoriga moslashuvchanlikni oshirish orqali hududiy tafovutlarni kamaytirish mumkinligini asoslab, bu jarayonlarda raqamli monitoring vositalarining ahamiyatini alohida ta'kidlagan [3]. Ushbu yondashuv hududiy nomutanosiblikni faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy rivojlanish omillari bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Antonietti R., Burlina C. va Rodriguez-Pose A. raqamli texnologiyalar hamda hududiy daromadlar tengsizligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, bu jarayonda institutsional muhit hal qiluvchi omillardan biri ekanini ko'rsatgan [4]. Ularning xulosalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar faqat tegishli boshqaruv sifati, institutsional

barqarorlik va hududiy siyosat mexanizmlari bilan uyg'unlashgandagina hududlararo tafovutlarni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham hududiy ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni baholashning metodologik asoslari keng yoritilgan. Xususan, Karimova Sh. Z. O'zbekiston hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni tahlil qilishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqqan va hududlar rivojlanishini baholashda statistik ko'rsatkichlar tizimi, qiyosiy tahlil hamda koeffitsiyentlar usulining muhimligini asoslagan [7]. Bu tadqiqot hududiy nomutanosiblikni monitoring qilishda milliy sharoitga mos ilmiy-uslubiy bazani shakllantirishga xizmat qiladi.

Hududiy farqlarni miqdoriy baholashda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar metodologiyasi hamda Corrado Gini tomonidan ishlab chiqilgan tengsizlik koeffitsiyenti yondashuvi muhim manba va uslubiy asos sifatida qo'llaniladi [5], [6]. Ushbu yondashuvlar hududlararo tafovutlarni statistik jihatdan aniqlash, ularning dinamikasini baholash va amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot O'zbekiston hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni raqamli monitoring tizimlari yordamida aniqlashga qaratilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan olinadi, hududiy iqtisodiy, demografik va infratuzilma ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Raqamli monitoring tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni integratsiya qiladi, GIS va sun'iy intellekt yordamida hududlar xaritalanadi va nomutanosiblik darajasi vizual tarzda ko'rsatiladi. Indikatorlar normallashtirilib, integral indeks va statistik koeffitsiyentlar orqali hududlar reytinglanadi. Shu yondashuv hududlararo tafovutlarni aniqlash va real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi hamda hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy nomutanosiblik bu mamlakat yoki mintaqa hududlari o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojlanish darajasidagi farqlarning mavjud bo'lishidir. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish, infratuzilma va aholi daromadlari yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda bu ko'rsatkichlar past bo'lishi mumkin. Natijada hududlar o'rtasida rivojlanish tafovutlari yuzaga keladi. Hududiy nomutanosiblik ko'pincha resurslarning notekis taqsimlanishi, sanoatning joylashuvi, urbanizatsiya jarayoni va mehnat migratsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Uni baholashda hududiy yalpi mahsulot, aholi daromadi, bandlik darajasi, infratuzilma rivojlanishi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ba'zi tadqiqotlarda esa iqtisodiy, ijtimoiy va demografik ko'rsatkichlarni birlashtirgan kompleks indekslar asosida hududiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi.

1-jadvalda hududiy rivojlanishdagi nomutanosiblikni baholashda qo'llaniladigan asosiy indikatorlar keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Xususan, yalpi hududiy mahsulot va aholi daromadi hudud iqtisodiyotining holatini ko'rsatsa, bandlik darajasi mehnat

bozoridagi vaziyatni ifodalaydi. Shuningdek, infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari hudud aholisi turmush darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu indikatorlar hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini aniqlashda keng qo'llaniladi.

1-jadval.

Hududiy rivojlanishdagi nomutanosiblikni baholash indikatorlari[5]

Indikator nomi	Mazmuni	O'lchov birligi
Yalpi hududiy mahsulot	Hududda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymati	mlrd so'm
Aholi daromadi	Aholining o'rtacha daromad darajasi	so'm
Bandlik darajasi	Ish bilan band aholining ulushi	foizda
Infratuzilma rivojlanishi	Yo'l, transport, kommunikatsiya holati	indeks
Ta'lim va sog'liqni saqlash	Ijtimoiy xizmatlar sifati	indeks

Hududiy rivojlanishni tahlil qilishda raqamli monitoring tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Bu tizimlar hududiy ma'lumotlarni tez yig'ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi hamda hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy holati haqida real vaqt rejimida ma'lumot olishga yordam beradi. Natijada davlat boshqaruvida qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi va samaradorlik oshadi. Shuningdek, hududiy tahlillarda Big Data texnologiyalari ham keng qo'llanilmoqda. Ular katta hajmdagi statistik, iqtisodiy va demografik ma'lumotlarni bir tizimda jamlab, chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, GIS texnologiyalari hududiy ma'lumotlarni xarita ko'rinishida tasvirlab, iqtisodiy faoliyat joylashuvi va infratuzilma holatini vizual tarzda ko'rsatishga yordam beradi. Bu esa hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash va rivojlanish jarayonlarini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

Hududlararo nomutanosiblikni baholash jarayonida turli statistik usullar va indekslardan foydalaniladi. Odatda hududlarning rivojlanish darajasi bir nechta asosiy ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Masalan, iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi daromadlari, infratuzilma rivoji, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari ko'rsatkichlari asosida kompleks indekslar hisoblanadi. Ushbu indekslar yordamida hududlarning rivojlanish darajasi o'zaro taqqoslanadi. Raqamli monitoring tizimlari ushbu jarayonni yanada samarali qiladi. Masalan, ayrim tadqiqotlarda sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, tungi yorug'lik ko'rsatkichlari va aholi zichligi kabi indikatorlar yordamida hududiy rivojlanish darajasi baholangan. Bunday usullar hududlarning iqtisodiy faoliyati va infratuzilma rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Hududiy nomutanosiblikni baholashda kompozit indekslar va statistik modellar qo'llaniladi. Masalan Gini koeffitsienti:

$$G = \frac{\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n |x_i - x_j|}{2n^2 \bar{x}} [6].$$

Bu yerda,

x_i va x_j - hududlarning rivojlanish ko'rsatkichlari;

n - hududlar soni,

\bar{x} - hududlar bo'yicha ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati.

Gini koeffitsienti 0 ga yaqin bo'lsa, hududlar o'rtasidagi tenglik yuqori, 1 ga yaqin bo'lsa, nomutanosiblik katta ekanligini bildiradi. Ushbu formula yordamida hududlar rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Rivojlangan, o'rtacha rivojlangan va rivojlanish darajasi past hududlar. Bunday tasnif hududiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Hududiy yalpi mahsulot hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati 120222,2 mlrd so'm va Toshkent shahrida 98440,5 mlrd so'm kuzatiladi. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sektorining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Aksincha, Surxondaryo 19425,6 mlrd so'm hamda Farg'ona 22813,5 mlrd so'm viloyatlarida ushbu ko'rsatkich nisbatan past bo'lib, hududlar o'rtasida iqtisodiy faollik darajasining farqlanishini ko'rsatadi. Aholining o'rtacha oylik daromadi ham hududlar kesimida sezilarli farq qiladi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 7,2 mln so'm kuzatilgan bo'lib, bu hududda iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada jamlanganligi bilan bog'liq. Bandlik darajasi bo'yicha ham hududlar o'rtasida tafovut mavjud: Toshkent shahrida bandlik darajasi 82,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatkich 63,7 % ni tashkil etadi. Sog'liqni saqlash infratuzilmasi ko'rsatkichlari ham hududiy nomutanosiblikni aks ettiradi. Masalan, Toshkent shahrida 10000 aholiga 76,8 nafar shifokor to'g'ri keladi, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich ancha past. Raqamli infratuzilma indikatorlari ham hududlar o'rtasida farq qilishini ko'rsatadi. Xususan, Navoiy viloyatida internet penetratsiyasi 89,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatkich 61,8 % darajasida qayd etilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri 91 642,8 mlrd so'm va Toshkent viloyatida 73 325,1 mlrd so'm kuzatiladi. Investitsiya oqimining asosan iqtisodiy markazlarga yo'naltirilishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni yanada kuchaytirishi mumkin. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish, daromad darajasi, bandlik, sog'liqni saqlash va raqamli infratuzilma bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Hududiy nomutanosiblikni tahlil qilish natijasida ayrim hududlar iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma va investitsiyalar bo'yicha oldinda ekanligi, boshqa hududlar esa ancha ortda qolayotgani aniqlanadi. Odatda yirik shaharlar va sanoat markazlari tez rivojlanadi, qishloq hududlari esa iqtisodiy imkoniyatlar yetishmasligi sababli sekin rivojlanadi. Bunday farqlar aholi turmush darajasi va bandlik ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi. Hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, hududlarga investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida hududiy monitoring tizimlarini joriy etish ham samarali natija beradi. Bunday tizimlar hududlarning rivojlanish ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilib borish imkonini yaratadi.

2-jadval.
O‘zbekiston viloyatlari kesimida hududiy rivojlanish va nomutanosiblik ko‘rsatkichlar[7]

Viloyat	Hududiy YaIM, mlrd so‘m	Aholining o‘rtacha oylik daromadi, so‘m/oy	Bandlik darajasi, foizda	10000 aholi boshiga shifokorlar soni, nafar	Internet penetratsiyasi, foizda	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m
Andijon viloyati	27139.7	3782162,9	70.2	23,4	69,6	28 668.0
Buxoro viloyati	35638.4	3552960,4	67.7	32,3	76,9	51 663.9
Farg‘ona viloyati	22813.5	3226076,1	68	23,8	85,9	21 542.7
Jizzax viloyati	28602	3351251,2	66	18,1	69,9	23 515.4
Namangan viloyati	23191.8	2523203,5	66.8	19,8	70,7	54 231.4
Navoiy viloyati	120222.2	5667793,3	70.5	30,5	89,3	33 550.2
Qashqadaryo viloyati	23319.6	3253857,9	65	18,4	63,6	35 482.5
Qoraqalpog‘iston R.	22963.9	3672209,9	64.3	27,2	76,3	20 567.7
Samarqand viloyati	24425.8	3323198,6	64.8	26,7	68,7	28 946.9
Sirdaryo viloyati	31065.1	3543083,1	65.3	21,9	80,3	11 406.3
Surxandaryo viloyati	19425.6	3262897,1	63.7	16,2	61,8	16 593.1
Toshkent shahri	98440.5	7211770,9	82.3	76,8	168,2	91 642.8
Toshkent viloyati	49105.4	4034365,2	72.3	23,8	65,9	73 325.1
Xorazm viloyati	26633.7	3544443,5	66.2	30,5	76,7	15 624.1

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlararo nomutanosiblikni tahlil qilish hududiy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunish va samarali iqtisodiy siyosat yuritishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududlar o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojlanish darajasida ma’lum farqlar mavjud. Bu farqlar ko‘pincha resurslarning notekis taqsimlanishi, sanoatning joylashuvi, urbanizatsiya jarayonlari hamda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shuningdek, hududiy rivojlanishni baholashda zamonaviy raqamli monitoring tizimlari, Big Data va GIS texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar hududiy ma’lumotlarni tezkor yig‘ish va tahlil qilish, shuningdek hududlar o‘rtasidagi farqlarni aniq aniqlash imkonini beradi. Natijada hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish yanada samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bulturbayevich, M. B. (2025). The contribution of digitalization and innovation to regional economic convergence. international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 14(09), 41-47.

2. Hu, S., Jie, Y., & Zhu, S. (2026). Digitalization and configurational effects on regional income inequality: Analysis of panel data from 134 economies. *Technological and Economic Development of Economy*, 32(1), 146-179.

3. Ilxomjonov, J. Reducing Inequality Through Human Capital Development: A Comparative Analysis OF Policies in the European Union AND Uzbekistan. *Green Economy and Development*, 3(6), 665803.

4. Antonietti, R., Burlina, C., & Rodriguez-Pose, A. (2025). Digital technology and regional income inequality: Are better institutions the solution?. *Papers in Regional Science*, 104(2), 100079.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va xalqaro tashkilotlar metodologiyasi asosida muallif tomonidan tuzildi.

6. Corrado Gini tomonidan ishlab chiqilgan tengsizlik koeffitsienti metodologiyasi asosida.

7. Karimova Shirin Zoxid qizi Методологические Основы Анализа Уровня Социально-Экономических Различий В Регионах Узбекистана. Vol. 5 No. 4 (2025): oktabr-dekabr Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/issue/view/21>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**